

FOTELEKTRIK STANSIYALAR UCHUN DAVLAT TOMONIDAN BERILAYOTGAN SUBSIDIYA VA KO'MAKLAR

SH.O.Bebitov, F.F.Sodiqov, M.A.Malikov

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tomonida fotoelektrik stansiyalarni (FES) o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan subsidiya va ko'maklar, hamda chet ellik investorlar uchun berilgan imkoniyatlar xaqida yozilgan.

Kalit so'zlar : fotoelektrik stansiyalar, subsidiya, elektr energiyasi, elektr tarmoqlari, quyoshli xonadon

Kirish: O'zbekistonning iqlimi va geografik sharoiti quyosh energiyasidan keng sonoat ko'lamida elektr va issiqlik energiyasi olish imkoniyatini beradi.

Quyosh energiyasi qurilmalari turli sohalarda qo'llanilishi mumkin. Bu, ayniqsa, markazlashgan elektr va issiqlik energiyasidan uzoqdagi aholi punktlarni energiya bilan ta'minlashning qulay yo'lidir.

Quyosh energiyasidan amalda foydalanishning eng istiqboli porloq sohalari

- elektr energiyasi ishlab chiqarish;
- quduqlardan ichish va sug'orish uchun suv chiqarish;
- chol hududlarda suvlarni chuchuklashtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish;
- issiqxona va uylarni isitish;
- markazdan uzoqda joylashgan uylarni issiq suv bilan ta'minlash;
- imoratlarni shamollatish va sovutish;
- toza va yuqori darajadagi issiqqa chidamli mahsulotlar olish uchun yuqori haroratli pechlarni qurish.

Asosiy qism: Shunday ekan bugungi kunda mamlakatda bu soxani rivojlantirish uchun 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ - 57 qarorda turli xil imtiyozlar joriy qilingan bo'lib bunga ko'ra 2023-yil 1-apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar o'rnatgan kundan boshlab 3 yil muddatga

- ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i;
- qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'i;
- yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'larini to'lashdan ozod etiladi. Agar o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan

quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa 10 yil muddatga ushbu solig'lardan ozod etiladi.

2023-yil 1-martdan boshlab esa yagona elektr energetika tizimiga ulanish uchun berilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan quvvatdan yuqori bo'lmagan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda qo'shimcha texnik shart olish talab etilmaydi.

Tadbirkorlik subyektlari va xorijiy investorlarga xam bir qator imkoniyatlar yaratilgan bo'lib:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat organiga va (yoki) hududiy elektr tarmoqlariga o'rnatilgan tariflarda, boshqa iste'molchilarga o'zaro kelishilgan narxlarda to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan, shu jumladan uzoq muddatli shartnomalar asosida sotishga ruxsat beriladi. Boshqa shaxslar esa tegishli obyektlarda ijara huquqi asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatib, ushbu qurilmalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotishlari mumkin.

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan oy davomida yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmining hisobi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ billing tizimida yuritilib, oy yakuni bilan tarmoqqa uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmi o'rtasidagi tafovutga asosan o'zaro hisob-kitob qilinadi. Bunda, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan elektr energiyasini saqlab berish xizmati uchun haq olinmaydi.

- quvvati 300 kVt va undan yuqori bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi ushbu manbalar Energetika vazirligida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Energetika saloxiyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator loyixalar xam ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra 2023 yil 1 apreldan "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshirilgan bo'lib va uning doirasida:

- jismoniy shaxslarga tegishli ob'yektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat byudjetidan 1 000 so'mdan subsidiya ajratiladi;

- subsidiya to'lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi;

- subsidiya soliq organlari tomonidan har oyda "Soliq" mobil ilovasi orqali hisobot oyidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar fuqarolarning bank plastik kartalariga o'tkazib beriladi.

Oy davomida yagona elektr energetika tizimidan iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmidan ko'p bo'lgan taqdirda, shu oy uchun elektr energiyasi bo'yicha to'lov qilinmaydi. Agarda oy davomida yagona elektr energetika tizimidan iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmidan kam bo'lgan taqdirda, shu oy uchun elektr energiyasi bo'yicha to'lovlar iste'mol qilingan va uzatilgan elektr energiyasi farqidan kelib chiqib hisoblanadi.

- foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish talabi joriy qilinmoqda;

- yangi tashkil etiladigan issiqxona xo'jaliklari hamda sement, g'isht va ohak mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga tabiiy gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar berilishi taqiqlanadi;

respublikadagi barcha yoqilg'i (avtobenzin, suyultirilgan va siqilgan gaz) quyish shoxobchalarining maishiy-texnik ehtiyojlari va hududini yoritish uchun elektr energiyasi ta'minotining kamida 50 % ushbu ob'yektlarda o'rnatiladigan quyosh panellari orqali qoplanishi talab etiladi.

Xulosa: Ko'rib turganingizdek foto elektrik tizimlarni o'rnatish uchun imkoniyatlar bisyor. Bir qancha subsidiyalar va ko'maklar mavjud bularning barchasi energetika soxasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan. Siz o'z xonadoningiz yoki koraxonangizga foto elektrik stansiya o'rnatangiz ishonchli va arzon energiyadan foydalanishingiz mukin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda quyosh energiyasi kelajak energiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va veb saytlar:

1. Energetika huquqi Narullayev O. 2021yil.
2. LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi.